

SIRENAGA YO‘L OCHGANLAR: HUQUQBUZAR YOKI QAHRAMON?

Gulnoza Muxiddinova

gulnozamuxiddinova9@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs B-potok 1-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada favqulodda holatlarda yo‘l harakati qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar, xususan, haydovchilarning tez tibbiy yordam va boshqa maxsus xizmatlarga yo‘l berishi natijasida yuzaga keladigan ma‘muriy javobgarlik masalalari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar asosida, zarurat holatida sodir etilgan huquqbuzarliklarni istisno etuvchi mezonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi xorijiy davlatlarning “qutqaruv yo‘lagi”ga oid tajribasi bilan solishtirma tahlil olib borilgan. Muallif haydovchilarning huquqiy ongi va ijtimoiy mas‘uliyatini oshirish, inson hayotini asrash ustuvorligini ta‘minlash bo‘yicha tegishli tavsiyalarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Ma‘muriy javobgarlik, favqulodda holat, huquqbuzarlikni istisno qiluvchi holat, tez tibbiy yordam, yo‘l harakati qoidalari, huquqbuzarlik, qutqaruv yo‘lagi.

“Huquqbuzarlik - bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.” Demak, huquqbuzarlik-bu davlat tomonidan belgilangan qoidalarga yoki ijtimoiy tartibga zid bo‘lgan harakatlar sifatida ta’riflanadi va bu huquqiy javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Qonunchiligimizga ko‘ra 2020-yilda tez tibbiy yordam avtotransport vositalariga yo‘l beruvchi haydovchilarni manfaatini ko‘zlagan holda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun shaxslarning ma‘muriy javobgarligiga doir 17 (1) -moddasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, tezkor va maxsus xizmatlarning transport vositalari, shuningdek ular kuzatib kelayotgan transport vositalari tomonidan yo‘l harakati qoidalariga muvofiq imtiyozdan foydalangan holda sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar maxsus foto- va video qayd etishning texnik vositalari orqali qayd etilgan taqdirda hamda kechiktirib bo‘lmaydigan xizmat vazifalarini bajarganlikni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda haydovchilarning ma‘muriy qoidabuzarligi oxirgi zarurat holatlarida sodir etilgan deb topiladi va

ma'muriy ish Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 271-moddasiga muvofiq tugatilishi belgilandi. Bu o'zgartirishdan avvalgacha tez tibbiy yordam transport vositalariga yo'l bergan avto transport vositalariga ma'muriy javobgarlik belgilanar edi. Amaldagi tartibga ko'ra, tibbiy tez yordam transport vositalari haydovchilari yo'l harakati qoidalarini buzgan taqdirda tibbiy tez yordam muassalari tomonidan xizmat vazifalarini bajarganlikni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish zarur. Shundagina mazkur ma'muriy ish MJtKning 271-moddasi asosida tugatiladi. Ma'lumot uchun aytib o'tadigan bo'lsam, 2020 – 2023 yilning 6 oy davomida jami jami **16 864** ta shu kabi holat aniqlangan bo'lib, shulardan **10 444** ta holat bo'yicha ma'muriy ishlar tugatilgan.

Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Botir Matmurodov tez yordam, o't o'chirish xizmatlari va boshqa xizmatlarning avtomashinalariga yo'l berish, ularni tez o'tkazib yuborish jarayonida biror qoida buzilsa va videokameralarga tushib qolsa, haydovchilarimiz aybsiz aybdor bo'lib qolayotganini ta'kidlagan edi. Ya'ni, agar haydovchilar tezkor va maxsus xizmatlarning transport vositalariga to'siqsiz o'tib ketish uchun yo'l bergani sababli yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etiladigan bo'lsa, ular buning uchun javobgarlikka tortilmaydi. Bunda haydovchining huquqbuzarligi o'ta zarur holatlarda sodir etilgan deb hisoblanadi va ma'muriy ish tugatiladi. Shu bilan birgalikda, Senat raisi Tanzila Narboyeva ham ushbu vaziyatga quyidagicha fikr bildirgan; "Tez tibbiy yordam mashinalarining o'z vaqtida yetib kelmagani sababli 48 mingdan ortiq o'lim holati yuz bergan. Oxirgi uch yilda haydovchilar tomonidan maxsus avtotransport vositalariga yo'l bermaslik bilan bog'liq 700 dan ziyod holat aniqlangan."

Avvalari tez yordam, o't o'chirish xizmatlari va boshqa xizmatlarning avtomashinalariga yo'l berish, ularni tez o'tkazib yuborish jarayonida biror qoida buzilsa va videokameralarga tushib qolsa, haydovchilarimiz aybsiz aybdor bo'lib qolgan va katta jarimalar to'langan hollari afsuski yo'q emas. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilgan qo'shimchalar ana shunday holatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ya'ni agar haydovchilar tezkor va mazkur xizmatlarning transport vositalariga to'siqsiz o'tib ketish uchun yo'l berishi sababli yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etiladigan bo'lsa, ular buning uchun javobgarlikka tortilmaydi.

Yo'l harakati qoidalariga muvofiq, "Yalt-yalt etuvchi ko'k rangli yoki ko'k va qizil rangli chiroq-mayoqchasi va maxsus tovushli ishorasi yoqilgan transport vositalari yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, piyodalar qatnov qismidan o'tmasliklari, unda harakatlanayotganlari esa, bu transport vositalariga yo'l berishlari va zudlik bilan qatnov qismini bo'shatishlari kerak." Shu bilan birgalikda, "Ko'k yoki ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqchasini yoqib to'xtab turgan transport vositasiga yaqinlashayotgan haydovchilar zarur bo'lgan hollarda harakatlanish tezligini darhol to'xtash imkoniyatini beradigan darajada kamaytirishlari shart."

“Tez yordamni” o‘tkazib yubor degan gapni ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, “tez yordam”lar biz kesib o‘tayotgan yo‘ldan ham chiqishlari mumkin va svetoforming taqiqlovchi signaliga o‘tib ketishga haqlari bor. Shu sababli ba’zida maxsus transportni o‘tkazib yuborish uchun hech qanday chora ko‘rmasdan – uzoqdan sirena ovozi eshitilganda o‘z vaqtida tezlikni pasaytirishning o‘zi kifoya. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ayatadigan bo‘lsak, maxsus transport favqulodda vaziyatlarda ko‘pincha chap yo‘ldan harakatlanadi, haydovchilarga esa quyidagi harakatlar rejasi taklif etiladi. Chap yo‘lga tushib qolganlarning hammalari chap tomonga siljishlari, qolgan harakat yo‘llaridagilar – o‘ng tomonga siljishlari kerak. Muhimi, keskin harakat qilmaslik va sizning harakatingiz ahamiyatga egaligini unutmaslikdir.

“Qutqarish koridorini” shakllantirish vaqtida yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimadan qo‘rqish kerakmi? Yo‘q, bu holda jarimadan also qo‘rqish kerak emas. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 17 (1)-moddasiga muvofiq, Binobarin, YHQ buzilganligi avtomatlashtirilgan qayd qilish kameralari tomonidan qayd qilingan bo‘lsa ham, jarima to‘g‘risidagi qaror bekor qilinadi. Ertami kechmi, “tez yordam” mashinasi, ichki ishlar organlari yoki yong‘in xavfsizligi avtomobili bizning uyimizga yoki yaqinlaringizning uyiga shoshilayotgan bo‘lishi mumkin.

Yevropa davlatlarida ham bunday “Qutqaruv koridori” tashkil etilganini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan Germaniyaning yo‘l harakati qoidalarida 39-modda “Favqulodda signal (ko‘k chiroq va sirena) yoqilgan maxsus transport vositalariga barcha boshqa ishtirokchilar yo‘l berishlari shart” deya belgilangan. Shuningdek “Rettungsgasse” deb ataluvchi “qutqaruv yo‘lagi tushunchasi ham mavjud. Avtomobillar yo‘llarda tirbandlik paytida markazdan bo‘linib, tez yordamga yo‘ ochib berishlari kerak. Fransiya va Buyuk Britaniyada ham shu holat kuzatiladi, Buyuk Britaniyaning ‘Highway Code’dining 283-moddasiga muvofiq, haydovchilar “emergency vehicles” (tez yordam, yong‘in, politsiya) yaqinlashganmda tezda xavfsiz tarzda yo‘l bo‘shatishlari kerak, hatto svetafor qizil bo‘lsa ham.

O‘zbekiston Respublikasining Yo‘l Harakati Qoidalariga (YHQ) muvofiq, quyidagi holatlar huquqbuzarlikni istisno etuvchi vaziyatlar sifatida qaralishi mumkin:

- Favqulodda holatlar (shoshilinch vaziyatlar)

Agar haydovchi qonunlarni buzish orqali favqulodda holatda harakat qilayotgan bo‘lsa, u holda huquqbuzarlikni istisno etuvchi holat yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tez yordam mashinasi, militsiya yoki boshqa tezkor xizmatlar tomonidan foydalanilayotgan transport vositalari yo‘lga chiqayotganda haydovchi ularni o‘tkazish maqsadida yo‘lni to‘smasdan, buni amalga oshirsa, uning harakati istisno etilishi mumkin.

- Haydovchining salomatligi yoki xavf-xatarga qarshi harakat qilish

Agar haydovchi o'zining yoki yo'l harakati ishtirokchilarining salomatligini saqlash maqsadida, yoki haydovchi uchun xavfli vaziyatni bartaraf etish uchun huquqbuzarlikni amalga oshirgan bo'lsa, bu holat istisno etilishi mumkin. Misol uchun, agar haydovchi yo'l-transport hodisasiga uchragan va o'ziga yordam kerak bo'lsa, yoki boshqa haydovchining harakati xavf tug'dirsa, unga qarshi harakat qilish zarurati bo'lsa, bu holatda huquqbuzarlikni istisno etuvchi holat yuzaga kelishi mumkin.

•Yo'l harakati qoidalarini bo'yicha kelishuv

Ba'zan yo'l harakati qoidalarini buzish holatida, agar boshqa ishtirokchilar tomonidan to'g'ri kelishuv va ehtiyotkorlik bilan ish tutish sa'y-harakatlari amalga oshirilsa, bu holatlar ham huquqbuzarlikni istisno etishi mumkin.

Huquqbuzarlikni istisno etuvchi holatlar odatda shoshilinch va favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, har qanday holatda ham, haydovchining harakati xavfsizlikni ta'minlashi, yo'l harakati ishtirokchilarining huquqlarini hurmat qilishi va mavjud sharoitlarda ehtiyotkor bo'lishi zarur.

Yo'l harakati qoidalarini bo'yicha, qizil svetofor chirog'ida to'xtash majburiydir. Qizil chiroq, barcha transport vositalarini to'xtatishni talab qiladi, va to'xtash chizig'ini bosib o'tish yo'l harakati qoidalarini buzish hisoblanadi. Bunday harakat, odatda, xavfli va huquqbuzarlik sifatida baholanadi, chunki boshqa haydovchilar yoki piyodalarga zarar yetkazilishi mumkin.

Tez yordam mashinasining sirenasi bilan kelishi, bu holatni favqulodda vaziyat sifatida baholash mumkin. Tez yordam mashinasining harakati o'ziga xos ustuvorlikka ega, chunki bu, shoshilinch tibbiy yordamni ko'rsatish yoki boshqa shoshilinch vaziyatlarga aralashish uchun zarurdir. Shu sababli, haydovchi, tez yordam mashinasini o'tkazish uchun to'xtash chizig'ini bosgan bo'lsa ham, bunday harakatni huquqbuzarlikni istisno qiluvchi holat sifatida qarash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, haydovchi harakatlari favqulodda vaziyatga oid bo'lsa ham, u yo'l harakati qoidalarini buzgan va qizil chiroqning to'xtash chizig'ini bosgan bo'lsa, bu holatni huquqiy nuqtai nazardan baholaganda, huquqbuzarlikni istisno etuvchi holat sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va huquq nazariyasi Sh.A.Saydullayev
2. Davlat va huquq nazariyasi X.T.Odilqoriyev
3. Jinoyat huquqi X.Ochilov
4. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks
5. Jinoyat kodeksi
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'RQ
7. O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3973
8. Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida PQ-283